



Toshkent viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-sentyabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**
- IV. METAMA'LUMOTLAR**
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- oktyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 662 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 27 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 8 635 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida Toshkent viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 29 528,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,9 % ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 4 036,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 97,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 25 491,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 12,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 316,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 7,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)**




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- oktyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 123 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 36 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 087 tani tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-sentyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 39 977,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,2 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 32 728,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 10,3 % ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 78,7 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'ati Quyi Chirchiq (27,6 m.), Zangiota (10,1 m) tumanlari hamda Chirchiq (4,2 m.) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- oktyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 697 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 10 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 687 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-oktyabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 11 780,1 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 14,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 78,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Ijrochi: M.Mirzokirov
Tel: (+99871)203-45-00
(4541)

Manzil: Toshkent shahar Mirobod
tumani Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2-
uy